

NAVOIY VILOYAT NAVBAHOR TUMANINING TARIXIY MADANIY GEOGRAFIK JIHLATLARI

Yu.Q.Axmedova – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

S.O.Saydillayev – *talaba*

Navoiy davlat universiteti

Tayanch so'zlar: geografik o'rin, arxeologik yodgorliklar, muhofaza etiladigan hududlar, moddiy madaniy meros, nabotot olami, ilk aholi manzilgohlari, ko'chmanchi chorvadorlar, madaniy geografik jihatlari.

Ключевые слова: географическое положение, археологические памятники, охраняемые территории, материальное культурное наследие, мир наботов, ранние поселения, кочевые скотоводы, культурно-географические аспекты.

Key words: geographical location, archaeological monuments, protected areas, material cultural heritage, nabotot world, early settlement sites, nomadic herders, cultural geographical aspects.

Kirish. Mamlakatimizning eng yosh viloyatlaridan bo'lgan Navoiy viloyatining qadrlari va jonajon tumani Navbahorning tashkil topganiga 45 yil to'ldi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda Yangi Navbahorni barpo etish va tumanimizning tarixiga yangi g'alabalarni yozish biz yoshlarning zimmasidadir. Shak-shubhasiz ayta olamizki, fidoyi, mehnatsevar, oriyatli, halol va mard tumandoshlarimiz bilan Yangi Navbahorni Respublikada barcha sohalarida eng namunali tumanga aylantira olamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Navbahor tumani tarixining qadimgi davriga oid ma'lumotlarni M.Qosimov, D.Mirsaidov, D.Djuraqulovlarning tadqiqotlaridan bilishimiz mumkin [1]. Qadimdan bu hudud bilan bog'liq voqea va hodisalar tarixchi olimlar tomonidan tilga olinib, ular haqida ta'rifu tavsifini keltirishgan. Chunonchi, Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Xofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma", Xasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri axbob", "Do'stlar yodnomasi" kabi tarixiy manbalarda keltiriladi [2]. Kitobning asosiy qismini tashkil etuvchi Navbahor tumani va yondosh hududlar bilan bog'liq jarayonlar turli ijtimoiy, siyosiy tarz haqida juda ko'pchilik tarixchi, geograf olimlar, o'lkashunos tadqiqotchilar o'z ilmiy tadqiqot va kitoblarida atroflicha yoritishgan.

Muhokama. Navoiy viloyatining ko'hna va navqiron tumanlaridan biri – Navbahor tarixi haqida gapirar ekanmiz, Navoiy viloyatidagi tumanlardan biri hisoblanadi. Viloyatning janubi-sharqida joylashgan. 1980-yil 12-martda tashkil etilgan. 1998-yilda Navoiy tumaniga qo'shib yuborilgan. 1992-yilda yana alohida tuman sifatida qayta tuzilgan. Navbahor tumani sharqda Samarqand viloyatining Paxtachi tumani, g'arbda Konimex va Buxoro viloyati, shimolda Nurota va Konimex tumanining yaylov yerlari, janubda Karmana tumani bilan chegaradosh. Navbahor tuman nomini toponimik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, "Navbahor" nomi fors-tojik tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ikki qismdan iborat: "Nav" – yangi, yangilanish, boshlanish, "Bahor" – bahor, yangi mavsum, o'sish va uyg'onish davri demakdir.

Natijalar. Navbahor tumani hududida ilk qishloq manzilgohlarining paydo bo'lish davri milloddan avvalgi II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrdan boshlab Zarafshon vodiysi quyi qismidagi qabilalarning chorvachilik xo'jaligida ham tez suratlar bilan rivojlanish jarayoni kuzatiladi. Zarafshon daryosining har ikkala qismida dehqonchilik uchun qulay bo'lgan yerlarda yarim ko'chmanchi chorvadorlarning bir qismi o'troqlashib, yangi-yangi dehqon jamoalari shakllana boshlaydi [1]. Eng qadimgi o'zlashtirilgan hududlar misolida tuman hududida joylashgan Qalqonota mavzeyini kiritish mumkin.

Chunonchi, hozirgi Qalqonota qishlog'ining qoq markazidan chamasini bir kilometr janubi-sharqdagi Qozmontepa yodgorligi akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologlar tomonidan o'rganib chiqilib, qadimgi Sog'd madaniyatiga mansub urbanizatsiyalashgan dehqon hunarmand jamoalarining makoni ekanligi, bu maskanga miloddan avvalgi VI-V asrlarda asos solinganligi va bu yerda hayot milodiy VI-VII asrlargacha davom etgani aniqlangan [1]. Hudud aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Tarixiy va arxeologik yodgorliklar: Navbahor tumani hududi qadimiy turar joylar va madaniyat o'choqlari bo'lgan. Bu yerda topilgan arxeologik topilmalar tumanning uzoq o'tmishga borib taqalishini ko'rsatadi.

Sarmishsoy darasi: Bu joy Navbahor tumanining eng mashhur va muhim madaniy obyekti hisoblanadi. Unda neolit, bronza va ilk temir davrlariga oid 4000 ga yaqin qoyatosh rasmlari mavjud. Bu tasvirlarda ibtidoiy odamlarning hayoti, marosimlari va turli hayvonlar (buqalar, tog' echkilari, otlar) tasvirlangan. Bu rasmlar orqali ming yillar avval yashagan ajdodlarimizning dunyoqarashi va turmush tarzi haqida ma'lumot olish mumkin. Sarmishsoy darasi 10 ming yildan ortiq yoshdagi sirli petrogliflari bilan uzoq vaqt sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladi. Dara va uning atroflarida qoyatoshlar yuzasida o'yilgan 5 mingdan ortiq rasmlar topilgan. Bugungi kunda kamida 35 ta tematik rasm va mavzular mavjud – bu yerda odamlarning o'yma qiyofalari, ularning qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari, geometrik kompozitsiyalar va ov sahnalarini ko'rish mumkin. Barcha qoyatosh rasmlari tosh yoki metall asboblardan yorib yozilgan yoki o'yilgan. Nabotot mavzulari ham bu yerda tez-tez uchraydi – bu turli xil hayvonlar, ularning ba'zilar allaqachon yo'qolib ketgan. Shuningdek, tog' echkisi, arxar, bizon, ibtidoiy buqa, yovvoyi ot, tuya, qulon, kiyik, yovvoyi cho'chqa, sayg'oq va jayronlarning rasmlarini ko'rish mumkin. Rasmlardagi yirtqichlardan: sher, bo'ri, tog' qoplari, shoqol, tulki, qoplon va gepard uchraydi. Rasmlar bilan bir qatorda Sarmishsoy qoyalari orasida arab tilidagi turli xil yozuvlar ham uchraydi [3]. Arxeologik topilmalar va tabiat shu hududda yashagan aholi tomonidan chizilganligi aniqlangan.

Navoiy shahridan 30-40 km shimoli-sharqda Nurota tizmasining janubiy yonbag'rida joylashgan Sarmishsoyda 200 dan ortiq arxeologik yodgorliklar, jumladan qabristonlar, aholi punktlari qoldiqlari va chaqmoqtoshlarga ishlov berish ustaxonalari topilgan. Toshga o'yilgan rasmlari katta ahamiyatga ega; Sarmishsoyning markaziy qismi bo'lgan 2,5 km uzunlikdagi darada 5000 dan ortiq (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 10000 dan ortiq) petroglif tasvirlari topilgan. Chizmalar asosan daraning markaziy

qismidagi qora qoyalarda, deyarli har bir tekislik yuzasida jamlangan, ayrim toshlarda bir nechta tasvirlar ham uchraydi.

Sarmishsoy 1966-yildan buyon olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Sarmishsoyning hududida 62 oilaga mansub 650 ta o'simlik turi qayd etilgan bo'lib, ulardan 27 tasi endemikdir. Sarmishsoyda uchraydigan hayvonlardan O'rta Osiyo kobrasi, qora kalxat va Qizilqum arxari O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan [4].

Tasvirlarning eng ko'pi tog' echkisi va buqa bo'lib, ular so'nggi paleolit davridan boshlangan qadimgi ovchilik madaniyatiga xosdir. Shunga o'xshash tasvirlar Zarautsoy (O'zbekiston), Qobustan (Ozarbayjon) va Arabiston yarim orolidan topilgan. Eramizdan avvalgi II ming yillik oxirlariga taalluqli arxeologik materiallar orasida yovvoyi buqa, arxar, tog' echkisi, qo'toslarning suyak qoldiqlari uchraydi. Ba'zi paleozoolog olimlar fikriga ko'ra, eramizdan avvalgi II ming yillikning 2-yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda yovvoyi buqa va tog'-echkilarining soni keskin kamayib ketgan. Eramizdan avvalgi I ming yillik arafasida esa ular butunlay yo'qolib ketgan.

Sarmishsoyda tongda, tushlik vaqti va quyosh botayotganidagina ko'rinadigan suratlar ham bor ekan. Ba'zi tasvirlar faqatgina yomg'irli kunda ko'zga ko'rinadi. Bir qator arxeologlarning olib borgan izlanishlariga ko'ra, 20 km dan oshiq darada 200 dan ortiq arxeologik maskan topilgan.

Arabtepa: Tuman hududidagi yana bir muhim arxeologik yodgorligi bo'lib, u ham davlat muhofazasiga olingan. Arabtepa arxeologik yodgorligi O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologik yodgorlik davri aniqlanmagan. Navoiy viloyatining Navbahor tumanida Arabxona MFY da joylashgan. Davlat mulki hisoblanadi. Navoiy viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida [5]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda

Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilib - davlat muhofazasiga olingan.

Tabiiy va iqtisodiy geografik jihatlar: Navbahor tumani geografik joylashuvi jihatidan juda qulay hududda joylashgan bo'lib, bu uning iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tuman hududi Zarafshon daryosining shimoli-sharqiy qirg'og'ida joylashgan. Daryo tumanning dehqonchilik, chorvachilik va ekologik muhiti uchun katta ahamiyatga ega. Tuman shimoldan Nurota tog'lariga tutashgan. Bu tog'lar ekoturizm uchun katta salohiyatga ega bo'lib, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini o'z ichiga oladi. Tumanning iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga (paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik) asoslangan. Shuningdek, sanoat sohasida "Bentonit" kabi yirik korxonalar faoliyat yuritadi. Bu iqtisodiy asoslar aholining turmush tarzi va madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va bibliografiya. Navbahor tumani nafaqat tarixi, balki tabiiy boyliklari bilan ham bebaho zamin sanaladi. Tuman hududida 25 million yil avval paydo bo'lgan, 3 million 340 ming tonnani tashkil etuvchi bentonitli gil koni mavjud. Bundan tashqari, 847 ming metr kub pardozbop qurilish toshlari zaxirasiga ega. Bugungi kunda mazkur konlar qisman bo'lsa-da o'zlashtirilmoqda. Shuningdek, 30 million metr kub granit, marmar va ohaktosh konlari ham mavjud. Tumanimiz viloyatda hududi jihatdan kichik bo'lsada, bu yerda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning salmog'i, erishayotgan yutuqlarimizning nufuzi, obodlik va budyodkorlik jarayonlari yuqori pog'onalarni zabt etayotgani quvonarli hol [6]. Bir so'z bilan aytganda, 113 ming nafar aholi istiqomat qilayotgan tumanda taraqqiyot shiddati qizg'in pallaga kirgan. Bunda esa hududning tabiiy mavjud imkoniyatlari, boy o'tmishi yuksalishda muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Zero, tarixiy xotirasi yuksak avlodning buguni ham, ertasi ham porloq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent: «Noshir», 2010.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
3. Hasanov I., Gulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1-qism). O'quv qo'llanma. – Toshkent: «O'qituvchi», 2007.
4. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent: «Universitet», 2014.
5. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2009.
6. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2010.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада Навоий вилоятининг ко'ҳна ва навқирон туманларидан бири Навбахор тарихи, географик о'рни, маданий географик жиҳатлари, ilk qishloq manzilgohlarining paydo bo'lishi, Navbahor tumani hududi qadimiy turar joylar va madaniyat o'choqlari, tuman tarixiga oid olib borilgan tadqiqot ishlari, tumandagi tarixiy va arxeologik yodgorliklar, yo'qolib ketgan nabotot olamining rasmlari, Sarmishsoy darasi va uning atroflarida qoyatoshlar, Arabtepa arxeologik yodgorligi, tumanning tabiiy va iqtisodiy geografik jihatlariga ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлены сведения об истории Навбахора, географическом месте, культурно-географических аспектах, возникновении первых сельских поселений, территории Навбахорского района, древних поселений и очагах культуры, исследованиях по истории района, историко-археологических памятниках района, картинах исчезнувшего наботского мира, сармишсайском ущелье и других местах навбахорского района. его окрестности показывают скалы, археологический памятник Арабтепа, природные и экономико-географические аспекты района.

SUMMARY. The article shows the history of Navbahor, geographical position, cultural geographical aspects of one of the districts of Kohna and navqiran of Navoi region, the emergence of the first rural settlements, the area of Navbahor district ancient residential and cultural foci, research works on the history of the District, Historical and archaeological monuments in the district, pictures of the disappeared nabotot world, rockeries in Sarmishsoy Gorge and its surroundings, arabtepa archaeological monument, natural and economic geographical aspects of the district.